

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON  
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>S.M.Zokirova</b>	
Hozirgi zamon ijtimoiy fanlar kontekstida disleksiya.....	1315
<b>I.T.Xojaliyev</b>	
Tasvir nutq tipining modal aspketi.....	1319
<b>M.A.Usmanova</b>	
"Ansob us-salotin va tavorix ul-havoqin" asarida izofiy birikmalarning qo'llanilishiga doir nazariy masalalar.....	1324
<b>R.N.Umarova, O.U.Xolmatova</b>	
Kognitiv lingvistikada konsept va maqol tushunchasi munosabati .....	1328
<b>O.F.Turdaliyev</b>	
"Guliston" asarining o'rganilishi va uning tarjimalari.....	1333
<b>R.M.Shukurov, S.S.Abdikunduzova</b>	
Kommissiv nutqiy aktlar tadqiqi va tasnifi.....	1337
<b>A.I.Saminov</b>	
Oksyumoron va unga yondosh stilistik figuralar xususida.....	1341
<b>G.Z.Rozikova</b>	
Gaplarga xos sintagmatik nomutanosiblikni yuzaga keltiruvchi omillar .....	1346
<b>N.A.Quldashev, F.N.Mahmudova</b>	
Allegory as a research object of linguistics .....	1351
<b>E.K.O'rinboyeva, G.S.Jo'raboyeva</b>	
"Devonu lug'otit turk"da qo'llanilgan ayrim maqollarning lingvopoetik tahlili .....	1354
<b>U.I.Nosirova</b>	
Poetik matnlarning визуал-график ifodasi .....	1360
<b>Sh.R.Mo'ydinov</b>	
Ingliz va O'zbek tillarida "Hayot/O'lim" konseptual oppozitsiyasi verbalizatorlari struktural-semantik maydoni.....	1366
<b>Y.I.Karimov</b>	
O'zbek tilshunosligida til birliklari va so'z birikmalari talqini .....	1369
<b>G.S.Jo'raboyeva, G.V.Ergashova</b>	
"Qisasi rabg'uziy" asarida qo'llangan ko'makchilar tahlili .....	1373
<b>D.M.Ismoilova</b>	
Lingvogenderologiyaning nazariy masalalari .....	1378
<b>G.S.Jo'raboyeva, E.K.O'rinboyeva</b>	
"Devonu lug'otit turk" asari va toponimlar.....	1383
<b>Sh.M.Iskandarova, N.R.Maxmudova</b>	
Tub so'z holatidagi ornitonimlar .....	1388
<b>E.I.Ibragimova, E.K.O'rinboyeva</b>	
Sintaktik sathda qarama-qarshilik munosabatining ifodalanishi .....	1392
<b>Sh.M.Iskandarova</b>	
Lug'aviy birliklarda differensial-mazmuniy munosabatlar .....	1397
<b>X.X.Dusmatov, Z.N.Maxmudova</b>	
So'z o'yinlarining askiyachilar nutqida qo'llanilishi .....	1401
<b>Z.A.Akbarova</b>	
Inson dunyoqarashi olamni modellashtiruvchi sifatida .....	1406
<b>P.M.Axmadjonov</b>	
Sayf Farg'oniy she'riyatida istiora badiiy so'z san'atining qo'llanilishi.....	1409
<b>O.Q.Abbozov</b>	
Diniy motivli toponimlar.....	1413
<b>I.T.Axmadjonov</b>	
Deminutiv morfemalarning semantikasi va uslubiyati.....	1416
<b>M.T.Abdupattoyev</b>	
Poetik nutqda aktualizatsiya va aktual bo'linish .....	1422
<b>A.Mamajonov, O.Q.Abbozov</b>	
So'x tumani toponimlarining lingvistik tadqiqi.....	1427
<b>M.T.Abdupattoyev</b>	
Matnning statistik tahlili.....	1433



UO'K: 811.134.2373

## LINGVOGENDEROLOGIYANING NAZARIY MASALALARI

## THEORETICAL ISSUES IN LINGUOGENDEROLOGY

## ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ ЛИНГВОГЕНДЕРОЛОГИИ

Ismoilova Dilrabo Muhammad qizi

Farg'ona davlat universiteti boshlang'ich ta'lim uslubiyati kafedrasida o'qituvchisi

**Annotatsiya**

Jahon tilshunosligida yangi deya e'tirof etilayotgan lingvistik genderologiya yo'nalishi, antropotsentrik paradigmaning tarkibiy qismi sifatida o'zining taraqqiyot bosqichini bosib o'tdi. Til ilmidagi olib borilayotgan ko'plab tadqiqot ishlarida o'zining metodologiyasiga ega bo'ldi, lingvogenderologiyaning terminologik tizimi ishlab chiqildi. Xorijiy tilshunos olimlar tomonidan qilingan ilmiy tadqiqot ishlarida ushbu fan sohasining nazariy masalalari ko'rib chiqilib, fan kishilari tomonidan ma'qullandi.

**Аннотация**

Лингвистическая гендерология, признанная новой в мировой лингвистике, прошла этап своего развития как составная часть антропоцентрической парадигмы. Во многих научных работах по лингвистике имеется своя методология, разработана терминологическая система лингвогендерологии. Теоретические вопросы этой области науки были рассмотрены в научных исследованиях, проведенных зарубежными лингвистами, и получили одобрение ученых.

**Abstract**

Linguistic genderology, which is recognized as new in world linguistics, has passed its development stage as a component of the anthropocentric paradigm. In many research works in linguistics, it has its own methodology, the terminological system of linguo-genderology has been developed. The theoretical issues of this field of science were considered in the scientific research conducted by foreign linguists and were approved by scientists.

**Kalit so'zlar:** lingvogenderologiya, antropotsentrik paradigma, gender, jins, ijtimoiy jins, "ayol tili", "erkak tili", sotsial maqom, gender identifikatori, stereotip.

**Key words:** linguo-genderology, anthropocentric paradigm, gender, gender, social gender, "female language", "male language", social status, gender identity, stereotype.

**Ключевые слова:** лингвогендерология, антропоцентрическая парадигма, гендер, гендер, социальный пол, "женский язык", "мужской язык", социальный статус, гендерная идентичность, стереотип.

**KIRISH**

Gender lingvistikasi masalalarini o'rganish lingvistik fani uchun yangi soha hisoblanadi. Hozirgi kunda ushbu soha dolzarblilik kasb etib, ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Genderolingvistika yo'nalishi markazida erkak va ayol nutqining o'ziga xosligi, ovoz tonidagi farqli jihatlar turadi. Bundan tashqari gender sotsial, psixologik hamda madaniy jihatni qamrab olgan jarayon bo'lib, erkak va ayolning sotsial maqomi, psixologik holati, madaniy roli kabi masalalarni o'rganadi. Darhaqiqat, erkak va ayol nutqida tabiiy faktorlar emas, madaniy konsepsiyalarning o'ziga xosliklariga e'tibor qaratish lozim. Dastlabki ikki tilshunoslik ya'ni qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur tilshunoslik davrida gender masalalari e'tibordan chetda qolgan bo'lib, gender muloqoti borasida deyarli tadqiqot ishi amalga oshirilmagan. Hattoki, ushbu sohaga tom ma'noda tibbiyot shug'ullanishi lozim degan fikr bilan qaralgan. Biroq vaqt o'tib shu narsa ma'lum bo'ldiki, gender-bu ijtimoiy jins, psixologik jarayonlarning, qolaversa, madaniy infratuzilmalarning, jamiyatning shakllanishida, milliy o'zlikni anglashda anchagina muhim o'rin tutadigan jarayon hisoblanadi. Bundan tashqari, genderda madaniy muloqotning ko'lami kengligi, psixologik va ijtimoiy voqeligi mujassam ekanligini ham alohida ta'kidlash lozim. Shu bois gender muammolari bugungi kunda nafaqat falafa mutaxassislarini, balki fanning bir qator soha vakillarining, shu jumladan tilshunoslarning ham e'tiborini o'ziga qaratmoqda. Hozirda fanlar kesishuvida gender psixologiyasi,

## TILSHUNOSLIK

gender lingvistikasi, gender she'riyati kabilarning paydo bo'la boshlaganligi ham bejiz emas. [12-15]. Ijtimoiy fanlar doirasida ham gender tadqiqotlari muhim o'rin egallamoqda.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Tilshunoslikda fan tarmoqlarining yanada kengayib borishi, turli fan sohalarining jadal taraqqiy etishi natijasida lingvistik genderologiya rivojlandi, genderolingvistikaning vazifalari kengayishi va tadqiqotning fanlararo xususiyati o'z navbatida uning psixolingvistika, sotsiolingvistika, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik bilan chambarchas bog'lanishiga zamin yaratdi. Gender masalalari doirasida ayollar va erkaklar nutqi va kommunikativ xulq-atvorida genderning aks etishi bo'yicha sotsiolingvistik va psixolingvistik tadqiqotlar olib borildi. Genderning muloqot jarayonida qanday vositalardan foydalanishi, nima bilan tasvirlashi, kontekst hamda ijtimoiy omillar va muloqot muhiti jarayonga qanday ta'sir ko'rsatishi muhim sanaladi.

Biologik hodisani ta'riflovchi "jins" hamda ijtimoiy-madaniy holatni ifodalovchi "gender" konstruksiyalari psixolog R.Unger tomonidan "Jins va gender tushunchalarini qayta ta'riflash to'g'risida" nomli ishida insonning biologik parametrlarini ifodalash uchun, biologik ma'noni aks ettirish uchun "jins" terminini, ayollik va erkaklikning ijtimoiy-madaniy, psixologik jihatlarini ifodalash uchun esa "gender" atamasidan foydalanish taklif etildi. Uning fikricha, gender va uning namoyon bo'lishi (gender stereotiplari, gender me'yorlari, gender rollari va gender o'ziga xosligi) ayol va erkakda turli xil bo'lishi mumkin. [14-1086].

I.Goffman o'z asarlari orqali gender nazariyasini yanada rivojlantirdi. Genderning biologik hamda ijtimoiy jihatlarining o'zaro bog'liqligini hisobga olish, ularni tasniflash uchun I.Goffman genderizm va gender display atamalarini kiritdi (jinsning sotsio-madaniy namoyon bo'lishi: gender o'ziga xosligi, me'yorlari va stereotiplar). [4-194].

I. Goffman genderni biologik jinsning institutsional va ritual namoyon bo'lishi, insonning jinsi bilan bog'liq holda shakllangan klishe va stereotiplarning sabablarini ochib berdi. Gender institutsionalizatsiyasini tasdiqlash uchun olim erkak va ayol tushunchalarini ko'rib chiqdi ya'ni gender tushunchasi biologik xususiyatlar bilan emas, balki jamiyatda umumiy qabul qilingan xususiyatlar bilan bog'liqdir degan fikrni o'rtaga tashladi. I. Goffmanning fikriga ko'ra, jinsning ritualizatsiyasida odamlar tomonidan ko'plab marosimlarga doimiy rioya qilish, jamiyat tomonidan qabul qilingan normalar va maqom munosabatlarini qayta ishlab chiqarish yotadi. [4-194].

**NATIJA VA MUHOKAMA**

Jamoat tartibi muloqotning barcha ishtirokchilari tomonidan marosim me'yorlari (erkaklar va ayollarning kiyinish uslubi, erkak va ayolning xatti-harakati va boshqalar)ni tan olishva ularning ushbu qoidalarga rioya qilishiga tayyorlik yaratadi va ko'paytiradi. Ijtimoiy konstruktivizm va interaksionizm g'oyasi ko'plab gender nazariyalarining paydo bo'lishiga turtki bo'ldi.

1980-90-yillarda "gender" va "jins" tushunchalarini ajratishga hissa qo'shgan ko'plab ijtimoiy jarayonlarga yangicha qarash shakllandi.

80-yillarning ikkinchi yarmida Amerikalik J. Skott "Gender: tarixiy tahlil foydali kategoriya" nomli maqolasida gender tushunchasini ishlab chiqdi, unda gender, irq, sinf asosiy o'zgaruvchilar sifatida harakat qildi; tarixchi sifatida u "gender"da nafaqat shaxslararo munosabatlar tizimini, balki ijtimoiy aloqalar tizimi ham mavjud ekanligini ta'kidlaydi. [11-1053].

J. Skott "Gender ekspertizasi"ni sotsial-tarixiy jihatdan to'rtta guruhga bo'lishni taklif qiladi:

1. Madaniyatdagi erkaklar va ayollarni tavsiflovchi belgilar va tasvirlar majmuasi;
2. Diniy, pedagogik, ilmiy, huquqiy, siyosiy me'yorlar to'plami;
3. Ijtimoiy munosabatlar va ularni shakllantiruvchi institutlar (oila, qarindoshlik tizimi, uy xo'jaligi, mehnat bozori, ta'lim tizimi, hukumat);
4. O'zini namoyon qilish muammosi shaxsning sub'ektiv o'zini-o'zi anglashi ya'ni muammo jinsiy o'ziga xoslik, chunki "gender – bu hokimiyat munosabatlari va jamoaviy illyuziyalar ifodalangan maxsus soha". [10-278].

O.A. Voronina gender o'ziga xosligi bilan insonning erkak va ayolning ma'daniy jihatlarini bilan ongli ravishda aloqasi borligini tushunadi. Uning fikricha, "gender identifikatori - bu ichkilashtirish (qabul qilish) "Men" va boshqalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayoni natijasida paydo bo'lgan erkak yoki ayol xususiyatlari. [3- 70].

Erkaklar va ayollarning gender rollari tabaqalanish kategoriyasi sifatida jamiyatning tartibilligi, genderning sotsialligi va ierarxiasini ta'minlaydi. "Gender roli" atamasi "gender bilan

bog'liq tushunchalardan kelib chiqadigan ijtimoiy umidlar, shuningdek, nutq, xulq-atvor, kiyim va imo-ishoralar ko'rinishidagi xatti-harakatlarni o'z ichiga oladi". [6-110].

Gender munosabatlari kommunikativ jarayonda ya'ni o'zaro ta'sirlar, protsessual tabiat aniqroq qilib aytganda ularni ko'rsatuvchi ijro xarakteriga ega bo'lgan holatlarda quyiladi. Genderga nisbatan performativlik tushunchasi birinchi marta amerikalik faylasuf J. Butler tomonidan gender identifikatsiyasining performativ nazariyasiga bag'ishlangan asarlarida qo'llangan. (Performative theory of gender). [2-130]. "Performativlik" tushunchasi J.Ostinning nutqiy aktlar nazariyasidan olingan. [1-123]. Ilmiy adabiyotlarda yozilishicha, performativlar pragmatika va ifoda nazariyasi sohalariga oid asosiy tushunchalardan sanaladi. Performativlar haqidagi ilk tushuncha va terminlar J.Ostin tomonidan ilmiy muomalaga olib kirildi. Shuning uchun ham nutqiy aktlar nazariyasi haqidagi tadqiqotlarda "performativ ifoda", "nutqiy akt" terminlari haqida so'z borganda J.Ostin nomi tilga olinadi. [15-184]

J.Ostin kontsepsiyasida performativlar haqidagi tushunchalarga yana ham aniqroq yondashuv ko'zga tashlanadi. Unga ko'ra performativlar strukturasi lisoniy birliklar bilan nutqiy faoliyatning o'zaro uyg'unlashuvi kuzatiladi. Keyinchalik uning tadqiqotlarida but u "illokutiv kuchlar" terminiga yaqinlashtiriladi. "Illokutiv kuch" tushunchasi ostida esa ifodaning kommunikativ yo'nalishi nazarda tutiladi. Tilshunoslikda performativlar haqidagi nazariyaning shakllanishi nutqiy aktlar to'g'risidagi dastlabki tushuncha va fikrlarning chuqurlashishi va ilmiy asoslanishiga xizmat qildi. Performativlar termini asosan fe'llarga nisbatan qo'llaniladi, fe'llar harakat nuqtai nazaridan ham, gap yoki matnda kommunikativ niyatni ifodalovchi mazmuniy struktura jihatidan ham mos ifoda shakli sanaladi. [15-185]

R.Lakofning "Til va ayollarning o'rni" asarida ayol nutqi xulq-atvorining xususiyatlarini tekshirilib, muloqot nosozliklarining sabablarini izohlanadi. Ayol nutqining o'ziga xos xususiyatlariga muallif noaniqlik, hukmronlik qila olmaslik, katta insoniylik va erkak xatti-harakatlarida ifodalangan tajovuzkorlik va murosasizlikdan farqli o'laroq, kommunikativ sherigiga e'tiborli, har xil turdagi semantik zaiflashgan lug'atdan foydalanish kuchaytirgich va modal zarrachalar, ayiruvchi savollar va boshqalarni kiritadi. [9-86]. Yana bir amerikalik olim

M.R. Kay nutqiy xatti-harakatlarni genderologik aspektida o'rganadi, u ayollar tilini "uzr so'rash tili" deb hisoblaydi, erkaklar tili esa "tushuntirish tili" deb nomlaydi. [7-147].

Ushbu g'oyalarga asoslanib, nemis feministi S. Tremel-Ploetz ayollar nutqining "defitsit nazariyasi"ni ishlab chiqdi (defitsit modeli), unda ayollar nutqining og'zaki va yozma nutqida o'ziga ishonch, tajovuzkorlik va boshqa "erkak" fazilatlarining yo'qligini isbotladi. [14-68].

G'arb tadqiqotlari ikkita muhokamali yo'nalishga asoslanadi: psixolingvistikada keng tarqalgan biodeterminizm nazariyasi va sotsiolingvistikada mashhur bo'lgan sotsiomadaniy determinizm nazariyasi. Ayollar va erkaklar og'zaki nutqi ushbu sohalar o'rtasidagi muhokama munosabatlar asosini tashkil etadi. Eksperimental biodeterministik g'oyalar tarafdorlari ayollar va erkaklar o'rtasidagi nutq xatti-harakatlaridagi farqlarni tug'ma biologik (kognitiv va gormonal) ta'sirda deb bilishadi. [8- 82].

Sotsiodeterministik yo'nalish tarafdorlari tilni poststrukturalistik feministik tanqid qilish doirasida tashkil etilgan tilning androsentrikligini neytrallash maqsadida sotsial konstruksiya tamoyili nuqtai nazaridan nutq tahlilining obyektiv usullari va tadqiqot natijalarini tushuntirishga e'tibor qaratishadi. Garchi ular

erkaklar va ayollarning turli kommunikativ va nutqiy xatti-harakatlarini psixofiziologik farqlar bilan bog'lashga harakat qilishmasin, aslida jamiyat va madaniyatning ta'siri "hukmronlik" qilishini ta'kidlaydilar.

Ushbu omillarni hisobga olgan holda, jahon tilshunosligida genderolingvistika bo'yicha zamonaviy tadqiqotlarni bir-birini to'ldiruvchi uchta sohaga bo'lishimiz mumkin. Birinchi yo'nalish doirasida erkaklar va ayollar tilining ijtimoiy tabiatiga, mohiyatiga urg'u beriladi, e'tibor qaratiladi. "Erkak" va "ayol" tillarining xarakterli xususiyatlari ijtimoiy dominant belgilari bilan tushuntiriladi.

Hozirgi xorijiy gender lingvistikasiga oid tadqiqotlarning ikkinchi yo'nalishida ayol va erkaklar tillariga xos bo'lgan nutqiy axloq tavsifi psixolingvistik nazariyalar asosida o'rganilib, ular statistik parametrlar orqali umumlashtiriladi.

Uchinchi yo'nalishda esa gender guruhlarning lisoniy xulqining farqlanishi fikrlash jarayoniga xos bo'lgan kognitiv xususiyatlari aniqlanadi. Bunday tadqiqotlarning mohiyati gender

## TILSHUNOSLIK

lingvistikasi modellarini yaratish uchun kognitiv lisoniy kategoriyalardan foydalanish bilan belgilanadi hamda ular lingvistik gender modellarini yaratish uchun xizmat qiladi. [5-510].

V.V.Potapov o'z tadqiqotlarida lingvistik genderologiyada ayollar va erkaklar nutqini o'rganishda turli kommunikativ vaziyatlarda ularning xatti-harakatlarini quyidagi asosiy uchta yo'nalish asosida o'rganadi:

- til darajalaridagi ma'lum farqlarni aniqlash: fonetika, morfologiya, semantika va sintaksis, shuningdek, ayollar va erkaklar idokidagi stereotiplar, nutqidagi farqlar;
- semantik farqlarni aniqlash, jamiyatdagi ijtimoiy funksiyalarni qayta taqsimlash—gender pozitsiyalari, ayollar va erkaklar tilining ijtimoiy tabiati bilan bog'liq;
- psixolingvistik nazariyalarni qurish, unda ayollar va erkaklarning lingvistik xatti-harakatlaridagi o'ziga xos xususiyatlari "ayol" va "erkak" tillariga qisqartiriladi.
- aniqlangan ko'rsatkichlarni kognitiv tushuntirish.

Bu nafaqat kelishmovchiliklar chastotasi bilan balki olam manzarasining turli aspektlari bilan ham aloqador sanaladi". [10-103].

## XULOSA

1. Agar gender tilshunosligi rivojlanishining dastlabki bosqichida uning asosiy maqsadi tilning androsentrikligini tanqid qilish va "olamning erkak surati"ning lingvistik vositalarini aniqlash bo'lsa, keyinchalik gender tadqiqotlari tilning genderni tegishli birliklariga va genderni qurishning kommunikativ-pragmatik kontekstiga qaratilgan.

2. Lingvistikada gender faktorining o'rni beqiyos. Bu barchamizga nozik ma'no ottenkalarini, mimikalarni, tahliliy jarayonlarni jinsga nisbatan qanday ko'rinishlarda bo'lishini yaqqol ko'rish imkonini beradi. Shuningdek, badiiy asarlardagi individual kaloritni to'laqonli ifodalash imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida badiiy troplarning shakllanishiga xizmat qiladi.

3. Zamonaviy genderolingvistik tadqiqotlari, odatda, bir qancha lingvistik yo'nalishlar chorrahasida olib boriladi. Tavsifda tilning antroposentrik tizimi asosiy bo'lishi, gender yondashuvi erkak va ayol kategoriyalarini o'rganishda qanchalik asosli ekanligini aniqlash, gender nosimmetrikligini aniqlash uchun ikki yoki undan ortiq tildagi materiallarni tahlil qilishda qiyosiy foydalanish va turli madaniyatlarda ayol va erkak stereotiplarini aniqlash zarurligi aytiladi.

4. Vaqt o'tishi bilan tilshunoslikda paydo bo'lgan yangi yo'nalishlar ya'ni sotsiolingvistika, pragmatika, psixolingvistika, nutq nazariyasi va kommunikatsiyalar gender tadqiqot ko'lam doirasi kengayishiga zamin hozirladi deb aytishimiz mumkin. Ushbu sohalar bevosita genderolingvistika bilan uzviy bog'liq sanaladi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Austin, J.L. How to Do Things with Words / J.L. Austin. – Oxford: Oxford University Press, 1962. – 167 p.
2. Butler, J. Gender Trouble: Feminism and the Subversion of Identity / J. Butler. – N.Y., L.: Routledge, 1990. – 172 p.; Butler, J. Contingency, Hegemony, Universality: Contemporary Dialogues on the Left / J. Butler, E. Laclau, S. Zizek. – L., N.Y.: Verso, 2000. – 330 p.
3. Воронина, О.А. Теоретико-методологические основы гендерных исследований / О.А. Воронина // Теория и методология гендерных исследований: курс лекций / под общ. ред. О.А. Ворониной. – М.: МГЦИ – МВШСЭН – МФФ, 2001. – С. 13–106.
4. Goffman, E. Interaktion und Geschlecht / E. Goffman. – Frankfurt am Main: Campus, 1994 (engl. 1977). – 194 S
5. Горошко, Е.И. Гендерная проблематика в языкознании / Е.И. Горошко // Введение в гендерные исследования. Ч. I: учеб. пособие / под ред. И.А. Жеребкиной. – Харьков: ХЦГИ, 2001; СПб.: Алетейя, 2001. – С. 508–542.
6. Джери, Д. Большой толковый социологический словарь / Д. Джери, Дж. Джери / В 2-х томах: пер. с англ. Н.Н. Марчук. Т. 1. – М.: Вече, АСТ, 1999. – 544 с.
7. Key, M.R. Male/Female Language / M.R. Key. – N.Y.: Metuchen, 1975. – 195 p.
8. Кирилина, А.В. Гендерные аспекты языка и коммуникации: дис. ... д-ра филол. наук: 10.02.19 / Кирилина Алла Викторовна. – Москва, 2000б. – 369 с.
9. Lakoff, R. Language and Woman's Place / R. Lakoff. – N.Y.: Harper and Row, 1975. – 328 p.
10. Потапов, В.В. Многоуровневая стратегия в лингвистической гендерологии / В.В. Потапов // Вопросы языкознания. – 2002. – №1. – С.103–130.
11. Пушкарева, Н.Л. Гендерная проблематика в исторических науках / Н.Л. Пушкарева // Введение в гендерные исследования. Ч. I: учеб. пособие / под ред. И.А. Жеребкиной. – Харьков: ХЦГИ, 2001; СПб.: Алетейя, 2001. – С.277–311.
12. Scott, J.W. Gender: a Useful Category of Historical Analysis / J.W. Scott // American Historical Review. – 1986. – № 5. – V. 91. – P. 1053–1075.

13. Трофимова Е.И. Терминологические вопросы гендерных исследований в филологических науках// Тезисы докладов Второй международной конференции «Гендер: язык, культура, коммуникация». МГЛУ, Москва, 22-23 ноябрь 2001 г. 15-с.
14. Trömel-Plötz, S. Linguistik und Frauensprache / S. Trömel-Plötz // Linguistische Berichte. – 1978. – № 57. – S. 49–68.
15. Unger, R.K. Toward a redefinition of sex and gender / R.K. Unger // American Psychologist. – 1979. – № 34. – P. 1085–1094.
16. Ҳақимов М., Газиёва М. Прагмалингвистика асослари. Дарслик, Тошкент-2020, 475 б, 184-б.